

INTEGRATSION YONDASHUV MOHIYATI VA NAZARIY JIHATDAN TAHLILI

Muslimov Sherzod Narzulla o'g'li

T.N. Qori niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti PhD dotsent

Lutfullayeva Chinni Sayfulla qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Muhandislik grafikasi
va dizayn nazariyasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada ta'limga integratsion yondashuv mazmuni, oliy ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash hamda nazariy va amaliy kasbiy ta'limni uyg'unlashtirish, ta'lim mazmuni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: talaba, ta'lim, jarayon, mazmun, uzviylik, uzluksizlik, hkakorlik, integratsiya, yondashuv, natija.

СУЩНОСТЬ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНТЕГРАЦИОННОГО ПОДХОДА

Муслимов Шерзод Нарзулла угли

Докторант Узбекского научно-исследовательского института педагогических
наук, PhD доцент

Лутфуллаева Чинни Сайфулла кызы

Магистрант 2 курса Шахрисабзского государственного педагогического
института по специальности инженерная графика и теория дизайна

Аннотация. В статье трактуется содержание интегрального подхода к образованию, интеграции высшего образования с наукой и производством и гармонизации теоретического и практического профессионального образования, обеспечения преемственности и неразрывности содержания образования, формирования профессиональных компетенций будущих специалистов.

Ключевые слова: студент, образование, процесс, содержание, непрерывность, неразрывность, приверженность, integratsiya, подход, результат.

THE ESSENCE AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE INTEGRATION APPROACH

Muslimov Sherzod Narzullaev ugli

Doctoral student of the Uzbek Research Institute of Pedagogical Sciences,
PhD Associate Professor

Lutfullayeva Chinni Sayfulla kizi

2nd year Master's student of Shakhrisabz State Pedagogical Institute,
specialty engineering graphics and design theory

***Annotation.** The article interprets the content of the integral approach to education, the integration of higher education with science and production and the harmonization of theoretical and practical professional education, ensuring continuity and continuity of educational content, the formation of professional competencies of future specialists.*

***Key words:** student, education, process, content, continuity, continuity, commitment, integration, approach, result.*

Kirish. Ta'lim tizimida talabalarga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchilarning bilimi, malakasi, kasbiy mahorati, iqtidori, iste'dodi va madaniyatiga hamda dars jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olish faolligiga bog'liqdir. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari tizimi yaratilib, uning asosiy vazifasi ta'lim tizimidagi ta'lim mazmuni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, fanlarni o'qitish uslubiyatini takomillashtirish, o'quv jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdan iborat bo'ladi. Bugungi kunda har bir mutaxassis o'z sohasini mukammal bilish bilan bir qatorda kompyuter va axborot texnologiyalarini etarlicha o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Chunki hozirgi kunda ta'lim tizimini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan barcha o'quvchilar kompyuter va axborot texnologiyalarini mukammal o'rgangan, o'zlashtirgan va amaliyotga tatbiq eta oladigan bo'lishi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, dars jarayonida fanlarni bir-biri bilan bog'lab o'tish, o'tilgan mavzuni osonroq tushunishga va ularni o'zlashtirishga olib keladi.

Xalqaro tajribalarga ko'ra, oliy ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash hamda nazariy va amaliy kasbiy ta'limni uyg'unlashtirish, bo'lajak

mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni taqozo etadi. Talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga oid ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramasdan, bozor munosabatlari qaror topayotgan bir sharoitda mehnat bozorida yuzaga keluvchi hayotiy raqobatga bardosh bera oladigan ixtisoslik fanlarini puxta o'zlashtirgan, muayyan vaziyatlarni to'g'ri baholay oluvchi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat faoliyatini amalga oshira oladigan shaxs sifatida tarbiyalash uchun ularda zarur va etarli darajadagi kasbiy tayyorgarlikni fanlar integratsiyasini ta'minlash vositasida shakllantirish zarurligini taqozo etmoqda. Qayd etilgan muammolar va vazifalar tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Asosiy qism. Oliy ta'lim oldida, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biri sifatida ta'limni zimini isloh qilish, modernizatsiyalash va bo'lajak muhandislarni innovatsion va texnik-texnologik yondashuv vositasida tarbiyalash, xorijiy tajribalarni va sohaning so'nggi yutuqlarini o'rganish, qo'llash va takomillashtirishga hissa qo'shish kabi dolzarb va keng qamrovli muammolar echimi turibdi.

Bu vazifalar parametrlari va ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarida maqsadga muvofiqlik mezonlarini, ayniqsa, yangi g'oyalarni tashuvchilar va ularning kelajakdagi ijrochilarini shakllantiradigan "ta'lim-innovatsiya" tizimini yaratish, ishlab chiqarish jarayonida innovatsion va nostandart echimlarni topa oladigan muhandislarni tayyorlash orqali hal qilinadi.

Innovatsion ta'lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri uning bosqichlari o'rtasidagi hamda fanlararo integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Shuning uchun ham ta'limning turli bosqichlarida integratsiya, uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash metodikasini ishlab chiqish masalasi har doim ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan hisoblangan.

Integratsiya – juda keng ma'nodagi tushuncha. Integratsiya nima? "Integratsiya" – lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, "integr" to'liq yaxlit, bir butun degan ma'nolar anglatadi. Integratsiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir [4].

Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan tizimlarda bo'lishi mumkin – bu holda ular tizim butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko'taradi. Integratsiya jarayonlari oldin bog'lanmagan elementlarni birlashtirish asosini hamda shakllangan tizimlarda ham yuz berib, natijada tizimni bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o'rtasida aloqadorlik murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo'ladi [5].

Integratsiya – ob’ektiv hayotiy jarayon. Globallashayotgan hozirgi hayotning integratsiyalashuv jarayonida mustaqillikni saqlab qolish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa xalqaro hamkorlikda quyidagi prinsiplarga qat’iy amal qilishni taqozo etmoqda:

integratsiyalashgan birlashmalarga faqat tomonlarning tengligi asosida qo‘shilish lozim (hatto siyosiy-iqtisodiy potensial turli-tuman bo‘lgan taqdirda ham);

milliy manfaatlar deklaratsiyasiga asoslanish, ularning mintaqaviy va boshqa manfaatlar oldida ustuvorligi;

ishtirok etishning ixtiyoriyligi va u yoki bu ittifoqni tanqid qilish imkoniyati mavjudligi.

Misol sifatida jamiyatda integratsiyalashuv, sivilizatsion integratsiyalashuv, fanda integratsiyalashuv va h.k. tushunchalar mavjud bo‘lib, jamiyat yoki ayrim davlatlarning integratsiyasi majburiy o‘zaro manfaat yoki maqsad, intilish, qadriyat kabilar asosida joriy etiladi. Hozirgi davrda davlatlararo integratsiyalashuvlar jarayonlari ham jadal rivojlanmoqda. Bu esa xorijiy tajribalarni o‘rganish va ta’limning ma’lum jabhalarida keng qo‘llash imkonini beradi.

Natijalar va muhokamalar. Ta’limda integratsiya ikki xil turda qo‘llaniladi. Birinchidan, ta’lim turlari (bo‘g‘inlari) orasidagi integratsiya. Bunda ta’limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog‘langan holda uning keyingi ta’lim turlarida davom etadi. Ikkinchidan, o‘quv fanlari orasidagi integratsiya. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog‘lanish orqali amalga oshiriladi.

Respublikamiz pedagog olimlarining integratsiya masalalariga ilmiy qarashlarini ko‘rib chiqaylik. U.B.Mamutovning fikricha, respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida kasbiy-pedagogik ta’lim integratsiyasi va uzviyligini ta’minlash kabi o‘z echimini kutayotgan dolzarb muammo mavjud bo‘lib, bugungi uzluksiz ta’lim talablaridan kelib chiqib, mazkur muammo yuzasidan yig‘ilgan fikr-mulohazalarga ilmiy-amaliy asoslangan aniqliklar kiritish hamda kasbiy-pedagogik ta’lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashni amalga oshirish fursati etib keldi [6].

Gerbert Spenser (1820-1903) falsafasida integratsiya – sochilgan, sezilmaydigan holatning ichki jarayonlarini sekinlashuvi natijasida zichlashishi va seziladigan darajaga o‘tishi deb tushunilsa, dezintegratsiya – buning aksi, ya’ni zich joylashgan narsaning harakat tezlashishi natijasida sochilgan holatga o‘tishidir deb aytiladi. Spenser “integratsiya” so‘zini, ko‘pincha, agregatsiya tushunchasi bilan teng ma’noda qo‘llaydi. Uning ta’limotiga ko‘ra, Quyosh tizimi, sayyoralar, organizm, millat rivoji integratsiya va dezintegratsiyaning birin-ketin o‘rin almashinuvlari natijasidir [9].

Nemis psixolog faylasufi E.R. Yensh (1883-1940) psixologiyasida integratsiya deganda, ruhiy hayotning ayrim xususiyatlarini butun ma'naviy hayot majmuiga ta'sir qilishi tushuniladi, – deydi [10].

Rudolf Smend (1851-1913)ning davlat to'g'risidagi ta'limotida integratsiya deganda davlatning, uning faoliyati shakllarining o'zaro ta'siri natijasida doimiy yangilanib turishi anglanadi. Ijtimiy integratsiya individlar, guruhlar, tashkilotlar va davlatlar o'rtasidagi tartibli munosabatlar mavjudligini anglatadi. Integratsiya jarayonini tahlil qilishda u bilan bog'liq tizim yoki sohaning murakkabligi e'tiborga olinadi [12].

Shu nuqtai nazardan o'quv fanlari orasida o'zaro uzviylikni va integratsiyani ta'minlash muammosi hozirgi kunda ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bevosita shu omillarga bog'lab olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlarda "izchillik", "integratsiya" kabi tushunchalar ishlatilib, ular turlicha talqin qilinmoqda. Manbalarda "integratsiya" tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan. Qomus.info online ensiklopediyasida integratsiyaga quyidagicha ta'riflar berilgan:

integratsiya – tizim yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;

fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, ya'ni differentsiatsiya bilan birga kechadi.

Izohli lug'atda [13] esa, integratsiya – (lotincha "integer" – butun) mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintaqa va xalqaro miqyosda o'zaro qo'shib yaxlit xo'jalik tizimini tashkil etishi deb izohlanadi.

Integratsiyaning shakllari va mexanizmlari keng qamrovli. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, integratsiya jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa mantiqiy ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich shakllanadi. Keng miqyosli integratsiya va globallashtirish jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanligini etirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy tasir o'tkazish vositasi ekanini ham unutmaslik darkor [1].

Mintaqaviy integratsiya jarayonlarida mamlakatlar ishtiroki, davlatlararo savdoning rivojiga, erkin raqobatning to'g'ri shakllanishiga, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga, jahon bozoriga kirib borish imkoniyatining ortishiga zamin yaratib beradi.

Iqtisodiyotda qo'llaniladigan bir qator atamalar kabi "integratsiya" (integratio) atamasi ham lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, "qismlarni butunlik tarkibida birlashtirish" ma'nosini ifodalaydi. Mashhur "Oxford English Dictionary" lug'atida

yuqoridagi ta'rif ilk bor 1920 yilda ishlatilganligi ma'lum qilinadi. Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlar to'g'risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiyasi mavjud emas.

Falsafiy va ilmiy pedagogik adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, "integratsiya" ko'p qirrali tushuncha bo'lib, unda falsafiy, pedagogik, psixologik jihatlarni ajratish mumkin [3]. "Integratsiya" tushunchasini yaxlitlikda tadqiq qilishning markaziy falsafiy va uslubiy asosi bo'lib, tabiat, jamiyat va ong rivojlanishining umumiy qonunlari haqidagi fan sifatida dialektika xizmat qiladi.

Demak, integratsiya falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlarga ega.

Falsafiy jihatdan integratsiya kategoriyasi "rivojlanish" kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning mohiyati "harakat" kategoriyasi bilan solishtirishda ayon bo'ladi. Integratsiya rivojlanayotgan barcha hodisa, jarayonlarga taalluqli bo'lgan umumiy va muhim aloqalarni aks ettiradi hamda yangidan rivojlanishni aniqlaydi. "Integratsiya" tushunchasi ko'p darajali bo'lib, xorijiy olimlar va pedagoglar integratsiya tushunchasiga turlicha ta'riflar berishgan.

Buyuk faylasuf Gerbert Spenser evolyusiya muammosini o'ziga xos tarzda hal etdi, evolyusiyaga xos quyidagi muhim belgilarni ko'rsatdi:

oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya);

bir xillikdan ko'p xillikka o'tish (differensiatsiya);

beqarorlikdan barqarorlikka o'tish [11].

Ilmiy bilimning informativligi muammosiga nisbatan qiziqish fanning hozirgi davrdagi rivojlanish qonuniyatlari, avvalo uning samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi bilishdagi integratsiya jarayonlari bilan belgilanadi. Fan integratsiyalashuvining muhim unsurlaridan biri bo'lgan ilmiy axborot integratsiyasi ilmiy axborotning bir-biriga, fanning bir tarmog'idan boshqa tarmog'iga o'tishida namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon fanining mantiqiy-gnoseologik asoslaridan biri sanalgan integratsiya ilmiy bilimning informativlik darajasi va asosiy informatsion imkoniyatlarini o'zgartiradi. Bu bilimning bir darajasidan boshqa darajasiga, narsalar va hodisalar mazmunini yanada teranroq aks ettiruvchi bilimga o'tishi bilan bog'liq. Integrativ jarayonlar nazariy tizimlarning teranlik darajasini oshirib, nazariya va empirik ma'lumotlarning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Nazariya mazmunining yanada teranlashuvi informativlik darajasining oshishiga sabab bo'ladi, tushunchalar haqidagi axborotning integrativ jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi [8].

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich

o'zlashtirish, faoliyatning etakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi. Pedagogik jihatdan esa integratsiya:

didaktik tamoyil – o'quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakl va usullarini belgilab beruvchi asosiy qoida;

shart-sharoit – ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi holatlar;

harakatga keltiruvchi kuch – ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil;

ta'lim rivojlanishi va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlanadi.

Pedagogik lug'atlarda ko'rsatilishicha, integratsiya ta'lim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, uzviy va tizimli joylashtirilishini, yangi mavzuni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishni, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishini, o'quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligi va yaxlitligini ifodalaydi [2].

Oliy ta'lim tizimi bakalavriat va magistratura bosqichlaridagi texnik va texnologik ta'limni integratsiyalashuvi metodikasiga asoslangan ta'lim asosida muhandis mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariyasi va amaliy usullarini ishlab chiqish masalasi bir necha xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan [7].

Xulosa. Hozirgi vaqtda integratsiya – raqobatbardosh kadrlar ichki va tashqi bozorida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat kurashining muhim vositalaridan hisoblanadi va bunday kadrlarni tayyorlash maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni, ularni ta'lim jarayonida amalda qo'llashni talab etadi. Har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turgan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir, yuksak bilim va intizomli mutaxassisni tayyorlashi bilan ham belgilanadi.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida integratsiyaga asoslangan ta'lim turlicha tashkil etilgan, boshqariladigan jarayonlarning harakatlanish qonuni sifatida ko'rib chiqilgan yoxud integratsiyasiz ilgarilanma jadal rivojlanishning imkoni yo'qdir, – degan fikr ilgari surilgan. Integratsiya o'tmish, hozirgi zamon va kelajakning zaruriy aloqa elementlarini nazarda tutib, eskini yangi bilan dialektik birlashtirish, bir shaklni boshqa takomillashgan shaklga almashtirishni amalga oshirish, yangi shakllar topish va ularning muvaffaqiyatli rivojlanish ehtimolini yaratish imkonini beradi.

Bizning nazarimizda, integratsiya tushunchasining mohiyatini yanada aniqroq va to'liq tavsifini berish mumkin. Birinchidan, rivojlanish, ya'ni ob'ektda yangi jihatlar, xossa va sifatlar paydo bo'lishi bilan, ikkinchidan, yangida eskining rivojlangan

elementlari, tomonlari va an'alarining saqlanishi bilan tavsiflanadi. Integratsiya falsafiy toifa bo'lib, o'zgarishlar rivojlanishining istalgan jarayonida, oldingi bosqichning alohida belgilari va tomonlarini rivojlanayotgan ob'ektning yangi bosqichidagi yangi shartlari bilan mos ravishda ko'chirish va uning yangi muhitga mos kelmaydigan, eskirgan belgilari va tomonlarini tashlab yuborish va mavjudlarini yaxlitlashtirish zaruriyatini belgilash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboev X. "Avesto" – Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi "Avesta" – Bessennoe bogatstvo narodov Vostoka // Toshkent moliya instituti. – Toshkent, 2004. – 56 b.
2. Djuraev R.X. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent, 2008. 135-b.
3. Maklakov A.G. Obshchaya psixologiya // Seriya «Uchebnik novogo veka». – SPb.: Piter, 2001. – 592 s. ISBN 5-272-00062-5.
4. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at // – Toshkent: "Sharq", 2000. – 269 b.
5. Мачулис В.В. Роль новых информационных технологий в обеспечении преемственности естественнонаучного образования в средней и высшей школе // дисс.рсл.ру. – М.: РГБ, 2003. –152 с.
6. Mamutov U.B. Kasbiy pedagogik ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2006. – 155-157 b.
7. Mirzaxmedov M.A., Narmanov A.J. Uzluksiz ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish // Uzluksiz ta'lim ilmiy -uslubiy jurnal. – Toshkent, 2004. – № 5. – 46-55 b.
8. Nazarov Q.N., To'uchiev B., Xaydarov X., O'tamurodov A., To'xtarov I., To'raev Sh. Ijtimoiy falsafa // O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008. – 235 b.
9. Спенсер Г. Политические сочинения: в 5 томах. 3-е изд. // – Челябинск: Социум, 2020. – Т.3. История политических институтов. – 426 с.
10. Сазонова З.С. Интеграция образования, науки и производства как методологическое основание подготовки современного инженера // Автореферат док. канд. наук. – Казань, 2008. – С 18.
11. Спенсер Г. Политические сочинения: в 5 томах. 3-е изд. // – Челябинск: Социум, 2020. – Т.3. История политических институтов. – 426 с.
12. Smend, Rudolf. In: Kürschners Deutscher Gelehrtenkalender // Biobibliographisches Verzeichnis deutschsprachiger Wissenschaftler der Gegenwart. Ausgabe. – Gruyter, Berlin, 2016. – Z. 28.
13. Xasanboev J.J., To'raqulov X.A., Xaydarov M.E., Xasanbaeva O.U. Pedagogika fanidan izohli lug'at. O'zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyoti, 2006 y. 238-b.